

## PSYCHOLOGICAL RESEARCH ON THE PROBLEM OF GENDER CHARACTERISTICS OF ADOLESCENT AGGRESSION

Burteshova Aliya Burkhanovna  
Chirchik State Pedagogical University

Quyliyeva Orzigul Rajabboyevna  
Chirchik State Pedagogical University

### ABSTRACT

Adolescence is a complex period of its own, and aggressive behavior has become a natural condition in most of the representatives of this age group. The article describes the classification of aggressive behavior in adolescence and the possibilities of correction.

**Keywords:** aggression, frustration, social situation, destructive motivation, family, emotional tension, "aggressor", "victim".

## O`SMIRLAR AGRESSIVLIGING GENDER XUSUSIYATLARI MUAMMOSI DOIRASIDAGI PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR

Burteshova Aliya Burxonovna  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Quyliyeva Orzigul Rajabboevna  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

### ANNOTATSIYA

O`smirlik davri o`ziga xos murakkab davr bo`lib, aksar bu yosh vakillarida agressiv xulq-atvor kuzatilishi tabiiy holatga aylangan. Maqolada o`smirlik davrida agressiv xulq ko`rinishlarining tasnifi, korreksion imkoniyatlari yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** agressiya, frustratsiya, ijtimoiy vaziyat, destruktiv motiv- lashtirish, oila, emotsional tanglik, «agressor», «qurbon».

Agressiya atamasi lotin tilidan olingan bo`lib, «aggredi» – «tajovuz qilmoq» ma`nosini anglatadi. Psixologiyada «agressiya» atamasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo`lib, X.Delgado, A.A.Bass, L.M.Semenyuk, G.Parens, A.Bandura, R.Uolters, Yu.Mojginskiylar tomonidan agressiya salbiy baholanadi<sup>1</sup>. Shu bilan bir qatorda agressiyaga nisbatan ijobiy yondashuvlar ham mavjuddir. Jumladan, L.Bender agressiyani insonning o`z-o`zini namoyon qilishga intilishidir, deb ta`kidlaydi. Motivlashtirish nuqtai nazaridan, L.Bender agressiyani ixtiyoriy va instrumental turlar ga ajratadi.

Mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan. Yurtimizda jadallik bilan ro`y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar hozirgi zamonaviy sharoitda psixologiya fanidan uzoq yillardan buyon dolzarb bo`lib kelgan an`anaviy muammolar bilan bog`liq tadqiqotlar sifatini oshirishni talab etadi. Kelajak avlod haqida qayg`urish, ularni sog`lom,

barkamol, komil insonlar etib voyaga yetkazish, yot mafkuralar, hurujlardan asrash, ularda turli g.,oyaviy tahdidlarga qarshi kurash ko'nikmalarini shakllantirish davlatimiz siyosatining muhim yo'nalishlaridan sanaladi. Kundalik hayotda barchamizni xavotirga va tashvishga solayotgan holatlardan biri bu jamiyatda qabul qilingan me'yorlardan chetga chiqadigan o'smirlarning ortib borishidir. Deyarli har kuni jamoat joylarda, mahalla-guzarlarda, ommaviy-axborot vositalarida, shuningdek internet tarmog.,ida o'smirlarning tengdoshlariga, yon atrofdagilariga nisbatan zo'ravonligini ko'rib guvohi bo'lamiz. Shu boisdan ham bugungi kunda o'smirlarning agressiv xatti-harakatlari muammosi har qachongidan ham dolzarbdir.

O'smirlik davri ontogenezning shunday rivojlanish davriki, bunda kuchli psixofiziologik rivojlanish, hissiy beqarorlik, impulsivlikning ortishi, tashqi muhitga nisbatan ta'sirchanlikning kuchayishi kabilar bilan bog.,liq maxsus davrni anglatadi. O'smirlarda namoyon bo'ladigan agressiv xatti-harakatlar hozirgi zamonaviy jamiyatni tashvishga solayotgan eng dolzarb muammolardan biridir. O'smirlik davriga nisbatan ishlatiladigan "krizis" tushunchasi, nafaqat bolalikdan kattalikka o'tishning og.,irligini ta'kidlash uchun, balki o'smirlarning agressiv xulq-atvor xususiyatlarining sababini tushuntirish uchun ham qo'llaniladi. Ijtimoiy psixologiyada shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'luvchi xulq-atvor tiplaridan biri, bu – agressiyadir. Agressiya hamda agressiv xulq-atvor masalalari ilmiy, psixologik, falsafiy adabiyotlarda dolzarb muammo sifatida qaraladi hamda falsafa, psixologiya va pedagogika nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. XIX asrning boshlariga qadar har qanday faol harakat, u xoh ijobiy, xoh salbiy bo'lsin agressiv hisoblangan. Keyinchalik bu so'zning ma'nosi o'zgarib o'z qamrovini toraytirgan. Biroq, shunga qaramay, zamonaviy psixologiyada agressiya va agressiv xulq-atvor muammosi mavjud, chunki bu atamalar turli xil ma'no kasb etadi.

Agressiya so'zining lug.,aviy ma'nosi lotin tilidan olingan bo'lib, "aggressio" – tajovuz degan ma'noni anglatadi [1]. Psixologik lug.,atda agressiya tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: "Agressiya jamiyatda insonning yashash normalari va qoidalariga zid keladigan, jonli va jonsiz obyektlarga ziyon keltiradigan, odamlarga jismoniy zarar yetkazadigan yoki ularda psixologik diskomfort tug.,diradigan xulqatvorning destruktiv ko'rinishidir" [2]. Pol Roberning lug.,atida agressiya "kuch ishlatish yo'li bilan individga tajovuz qilish", Oksford lug.,atida "individga nisbatan uyushtirilmagan tajovuz", S.I.Ojegov lug.,atida esa "adovatni keltirib chiqaruvchi ochiqchasiga yoqtirmaslik" sifatida talqin qilinadi

O'smir yoshlarda kuzatiladigan agressiyaning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bu davrning o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini bilish juda muhim. O'smirlik davri insonning 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu qisqa vaqt davomida o'smir o'z rivojlanishida katta yo'lni bosib o'tadi: o'z-o'zi bilan, shuningdek yon-atrofidagi yaqinlari bilan sodir bo'ladigan ichki nizolar, tez-tez kuzatiladigan tashqi noroziliklar, yuksalishlar kabilarga to'qnash kelib, u o'zida shaxs bo'lib shakllanish hissini tuyadi. Rivojlanishning yuqori bosqichiga ko'tarilayotganligini sezgan o'smir, endi o'zini kuchli, mustaqil, irodali, kechagi kunga qadar uning uchun ota-onasi xal qilib yurgan muammolarning yechimini endi o'zi topishga qodir deb hisoblay boshlaydi. O'smirning kattalarga o'xshash, katta bo'lish istagi atrofdagilarning qarshiligiga sabab bo'ladi.

Hozirgi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda o'smirlar agressivligini o'rganish muammosiga bag.,ishlangan asarlar talaygina.

M.L.Melnikovaning fikriga ko'ra, agressivlikning namoyon bo'lishi o'smirlik davrida yaqqol kuzatiladi. Uning bir qancha sabablari mavjud:

- birinchidan, bu yoshga kelib, shaxs xususiyatlari barqaror tarzda shakllanadi, jumladan o'smirdagi agressivlik, bu esa o'smirning tegishli xulq-atvor shaklining namoyon bo'lishiga ta'sir qiladi;

- ikkinchidan, o'smirlik davriga xos bo'lgan emosional sezgirlik va muvozanatsizlik, impulsiv xatti-harakatlarning, shu jumladan, agressiv harakatlarning tabiatini belgilaydi;

- uchinchidan, aynan mazkur yoshda tashqi determinasiya agressiv xulq modeli ko'rinishida tengqurlari orasida eng muvaffaqiyatli faoliyat shakli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi

G.,arb psixologiyasida agressivlik qanday ko'rinishda namoyon bo'lmasin boshqa tirik mavjudotga zarar yetkazishga qaratilgan xatti-harakatlar deb qaraladi.

Bugungi kunda turli mualliflar tomonidan agressiyaning ko'plab ta'sirlari taklif etilgan: birinchidan agressiya deganda kuchli faollik, o'z-o'zini tasdiqlashga intilish, insonning tashqi kuchlarga qarshi bardosh berishga imkon beruvchi ichki kuch tushuniladi.

Ikkinchidan agressiya dushmanlik harakatlari va reaksiyalari, hujum, vayron qilish, boshqa shaxsga, obyektga yoki jamiyatga nisbatan zarar yetkazishga urinishda kuch ishlatishni anglatadi

Agressiya boshqalarga tahdid soladigan yoki zarar yetkazadigan har qanday xatti-harakatdir. Quyidagi ikki jihat kuzatilsa xulq-atvorni agressiv deb atash mumkin: jabrlanuvchi uchun halokatli oqibatlar yuz berganda; xatti-harakat normalari buzilganda.

O'smirlarning agressiv xulq-atvori muammosi bugungi kunda butun dunyoda kuchli ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lib bormoqda. Ayni damda o'smirlarning agressiv xulq-atvorini ijtimoiy-pedagogik profilaktika qilish ishlarini samarali tashkil etish umumta'lim maktablari faoliyatining eng muhim yo'nalishiga aylandi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilib, shuni ta'kidlash mumkinki, agressiv xulq-atvor ijtimoiy-psixologik omillar ta'siri ostida shakllanib boradi. Agressiv xatti-harakat, birinchi navbatda, biror insonga qarshi qaratilgan tashqi ifodalangan harakatdir.

O'smirlik agressiyasini keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash, ularning emosional kechinmalari, hislarini tushunish, ular bilan olib boriladigan psixologik korreksiya imkoniyatlarini belgilash imkonini beradi.

O'smirlar nuzoli vaziyatlarda boshqacha usullar bilan hal etish imkoniyatlarini tushuntirib bera olish zarur.

O'smirlarda agressiya holatlari namoyon bo'lganda psixologlar bilan maslahatlashish, ular bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy jarayonda o'zlarining hattiharakatlarini muvofiqlashtirishni talab qiladi. Shuni yodda tutish kerakki, agressiv xulq, avvalo, o'smirlardagi salbiy emosional holatlar ta'sirida shakllanadi. Shuning uchun kattalar, avvalo, o'zlaridagi salbiy emosional holatlarni boshqara olishlari zarur. Bu bilan o'smirlar insonning o'zini-o'zi boshqara olishi ko'p hollarda ijtimoiy vaziyatni yaxshilashning eng maqbul usuli ekanligiga o'rnak ko'rsatadilar.

Bu borada agressiv xulq ko'rinishlarining namoyon bo'lishi holatlarida keskin vaziyatni yumshatish, o'smirning shaxsiga hurmat bilan qarash talab etiladi. Bunday holatlarda umuman qo'llanilishi mumkin bo'lmagan holatlarni ta'kidlash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- ovozni ko'tarish, tahdid qilish;

- tazyiq o'tkazish;

- noroziligini baqiriq bilan bildirish;
- agressiv yuz va tana harakatlaridan foydalanish;
- mazah, kalaka qilish;
- o'smir shaxsiga yoki uning yaqinlari, do'stlariga nisbatan salbiy fikr;
- jismoniy kuch ishlatish;
- nizoli vaziyatga begonalarni jalb qilish;
- o'zining haqligini tinmay ta'kidlash;
- axloqiy mavzularda uzundan-uzoq suhbatlar o'tkazish;
- jazolash yoki jazolash bilan qo'rqitish;
- o'smirni tengdoshlari bilan taqqoslash, uning boshqalarga nisbatan zaif jihatlarini ta'kidlash;
- o'smirga bosim o'tkazish;
- o'z harakatlarini oqlash maqsadida mukofot va' da qilish.

Ayrim hollarda yuqorida keltirilgan holatlar qisqa muddatga o'smir xulqini o'zgartirishi mumkin. Lekin keyingi salbiy oqibatlar agressiv xulq ko'rinishlariga ko'ra kuchli bo'lgan salbiy holatlar shakllanishga olib kelishi mumkin.

Ixtiyoriy agressiya insonning boshqa bir kishiga anglangan tarzda zarar yetkazishi hisoblanadi. Instrumental agressiyada inson o'z oldiga boshqaga zarar yetkazishni maqsad qilib qo'ymaydi. Bu agressiya yuzaga kelgan vaziyatni hal etishda boshqa usulni qo'llashga imkon bo'lmagan holda yuzaga keladi. R.Beron va D.Richardsonlar agressiyani qurbonga nisbatan maqsadli ravishda zarar yetkazishdir, deyata'riflaganlar.

Reaktiv agressiya o'z hayoti, erkinligi, g'ururi, o'zining yoki boshqaning moddiy boyligini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi. Ehtiyojlar, istaklar frustrasiyasi namoyon bo'ladi: rashk va xudbinlik;

- qasos;
- ishonchning yo'qolishi (hayotga, sevgiga, yaqin insonlariga).

Kompensator agressiya – zo'ravonlik, destruktivlik – hayotda o'zi uchun muhim bo'lgan dolzarb ehtiyojlar qondirilmaligi holatlarini kompensatsiya qilish:

- dolzarb ehtiyojlar qondirilmaligi holatlarini kompensatsiya qilish;
- sadizm (boshqani o'z hukmi, irodasigabo'ysundirish);
- nekrofilia;
- surunkali zerikish va depressiya.

Verbal agressiya – salbiy hislarni baqirish, janjal qilish, so'kish, haqoratlash, tahdid va boshqa usullar orqali bildirish. Arzimagan qo'zg'ovchi ta'sirga ham qo'pollik, terslik, emotsional qo'zg'alish bilan javob berish.

O'smirlik agressiyasi muammosi uzoq vaqtmobaynida yopiq bo'lgan mavzular sirasiga kiritilganligi bois, yetarli darajada o'rganilmagan mavzulardan biri hisoblanadi. Agressiya o'smirlarda yuzaga kelgan ijtimoiy vaziyat, hodisalar ustidan o'ziga xos nazo-rat qilishning maqbul usuli sifatida qabul qilinadi.

G'.B.Shoumarov fikriga ko'ra, o'smirlik dav- rining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlarini: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun-mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayoti, ruhiyati, organizmining fiziologik jarayonlari, uning ijtimoiy holatida

jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat vaziyatlarda ulardabir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil holatlar kuzatiladi

O'smirlarda agressivlikning shakllanishiga qator shaxs xususiyatlari ta'sir qiladi:

- tarbiyaning muvozanatlashmagan shakllari: o'z-o'ziga haddan ziyod past baho berish, yuqori darajada impulsivlik, spirtli ichimlik va giyohvand moddalar iste'mol qilish, kompyuter o'yinlariga tobelik, tavakkalchilikka tayyorlik holatlari, o'z-o'zini himoya qilish hislarining chegaralan-ganligi;
- xulqiy omillar: o'z vaqtini maqsadsiz o'tkazish, maktabdagi darslarni sababsiz qoldirish, o'zlashtirish darajasining pastligi, erta jinsiy aloqalarga kirishish va hokazo;
- ijtimoiy omillar (OAVning psixologik ta'siri, jamiyatdagi udum va marosimlar, ota-onaning xulqiy buzilishlarga ega ekanligi, oila ijtimoiy mavqeining past-ligi, tarbiyachilarning o'zgarishi (o'gay ota, o'gay ona va hokazo);
- o'smirning xulqiy og'ishlar shakllangan do'stlar bilan yaqin ijtimoiy aloqalarni o'rnatishi (taqlid fenomeni);
- ichki oilaviy nizolar (ota-onaning ajrashishi, ikkinchi nikohdagi farzandlar, o'smirning o'zlashtirishiga ota-ona tomonidan o'smir qobiliyatlari, qiziqishlari inobatga olinmagan holda haddan ziyod yuqori talablarning qo'yilishi.

Disfunktsional oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlarda agressiv xulq ko'rinishlarining shakllanishi ehtimolifunksional oilalarda tarbiyalanayotgan oilalardagi o'smirlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan.

Oilada o'smir erkinliklarini haddan ziyod cheklash, yoki aksincha, ota-ona tomonidan surunkali befarqlik ham agressiv xulq ko'rinishlarining shakllanishiga olib keladi. Agressiv xulq oilada o'smirning erkinliklari haddan ziyod chegaralanganda yoki unga haddan ziyod erkinliklar berilganda ham shakllanishi mumkin.

Agar o'smir oilada barcha ehtiyojlarining tezlik bilan qondirilishiga o'rganib qol-gan bo'lsa, tengdoshlari jamoasida uning ehtiyojlariga to'sqinlik qilganlarga nisba-tan agressiv munosabat bildiradi. Oilada emotsional inkor etilganlik holatlarida ham o'smirlar agressiv xulq ko'rinishlari bilan o'zlariga e'tiborni qaratishga harakat qiladilar. Ota-onaning o'smir xulqidagi o'zgarishlar sababini izlashi yuzaga kelgan muammolarni konstruktiv tarzda hal etishi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Agar o'smirning oila a'zolari muntazam tarzda o'zaro nizolar, baqiriqlar orqali ta'sir o'tkazish asosida muammolarini hal etishga o'rgangan bo'lsalar, boshqa ijtimoiy vaziyatda o'smir aynan o'zini shunday tutishga intiladi; shaxsiy muammolar (fiziologik va psixologik xarakterdagi muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi o'smirlarda jinsiy rivojlanish xususiyatlari – pubertat davri xususiyatlarining namoyon bo'lishi);

o'zining tashqi ko'rinishidan norozi bo'lish – «Terzit kompleksi» (kattalar to-monidan noadekvat idrok qilinishi). O'smir o'zini kattalardek his etishida unga bolalar kabi munosabatda bo'lish yoqmaydi;

o'smirdagi tafakkurning tanqidiyligi kattalar xatti-harakatiga nisbatan shubha bilan qarash, ularda o'rnatilgan axloqiy me'yorlarga nisbatan e'tiroz hislarining shakllanishiga olib keladi; ijtimoiy omillar (jamiyatda muammolarni kuch ishlatish orqali hal etilishi haqidagi g'oyasining o'rnatilganligi, maktablardagi o'quv sinflarning haddan ziyod to'laligi, maktabdan haddan ziyod charchash, asabiylashish).

Agressiv xulqli o'smirlar odatda quyidagi hislarga ega bo'ladilar:  
ular atrofdagilardan dushmanlik munosabatlarini kutadilar;  
o'zlarining dushmanlik holatlarini yetarli darajada baholay olmaydilar;  
o'zlarining muammolarida atrofdagilarni doimiy tarzda aybdor deb topadi- lar;  
muammoli vaziyatlarni hal etish usullari ularda chegaralangan;  
agressiv xulq ularning fikricha yaxshi natijalarga ega bo'lishni ta'minlaydi, ya'ni ularga nisbatan agressiyani chegaralaydi, degan fikrga egalar.

### XULOSA VA MUNOZARA

Nizoli vaziyat hal etilganda jazolanish ham tugaydi. Bundan keyin o'smirlarga qilgan xatolarini ta'kidlash aslo mumkin emas. O'smir agressiyasini bartaraf etishning eng maqbul usuli kattalarning o'z-o'zlarini boshqara olishlari, sabr-toqat bilan o'smirlarga maqbul yo'llarni ko'rsata bilishlariga bog'liq. Bunday holatlarda birgalikdabiror-bir faoliyatni bajarish tavsiya etiladi. Agar o'smir xatti-harakatlari atrofdagilar hayoti va salomatligi uchun jiddiy xavf tug'dirsa, u muayyan bir davr ichida o'zgarishlarga moyillik bildirmasa, psixiatrga murojaat etish zarur. Chunki bu holatlarda bosh miyada gi o'zgarishlar natijasida agressiya o'zini-o'zi nazorat qilishning yo'qolishi sindromining oqibati sifatida yuzaga kelgan bo'lib, jamiyat uchun xavf tug'dirishi mumkin.

### REFERENCES

1. O'tayev, A. Y., Eshmanova, N. N., & O'tayev, A. Y. (2020). Ta'lim taraqqiyotida renessansning o'rni. *Academic research in educational sciences*, 1(4), 788-794.
2. Eshmanova, N. N. (2022). THE formation of ideological and ideological immunity is an important condition for the formation of a harmonious personality. *Galaxy international interdisciplinary research journal*, 10(10), 254-258.
3. Eshmanova, N., & G'anibayeva, B. (2022). Qozoq va o'zbek tillaridagi omonim so'zlar va ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 848-851.
4. Ашуров, М. Ў.; Ашурова, М. М. (2020). Математика ўқитишда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш. *Ўзбекистонда илмий амалий тадқиқотлар*, 1(1), 254-256.
5. Mukhiddinova, A. M. (2022). Programming language python methodology for creating and using didactic materials for students. *Galaxy international interdisciplinary research journal*, 10(5), 63-67.
6. Ashurova, M. M. (2022). Python dasturlash tili yordamida o'quvchilarga o'quv-didaktik materiallar yaratish va ulardan foydalanish metodikasi. *Экономика и социум*, 3(94), 50-54.
7. Ашуров, М. У., Ашурова, М. М., Жумабаев, Р. Б., & Тождидинова, Д. Ф. (2016). Академик лицей ва касб-хунар коллежлари ўқувчиланинг дастурлаш кўникмаларини шакллантириш. In *Конференция* (Vol. 2, No. 2, pp. 96-97).
8. Нормуродов, Ч. Б., Бабаходжаева, Н. М. (2022). Визуализаторы алгоритмов как эффективное средство информационных технологий в образовании. *Международный журнал инновационные технологии в образовании*, 2(1), 11-24.

9. Babakhodjayeva, N. M. (2020). Visualizers of algorithms as effective means of information technologies in education. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research*, 6(9), 421-425.
10. Бабаходжаева, Н. М. (2020). Алгоритмлар назарияси фанини ўқитиш сифатини дастурий-методик мажмуа воситасида такомиллаштириш. *Современное образование (Узбекистан)*, (10 (95)), 25-31.
11. Тухтаева, Н. Р., Зиякулова, Ш. А., Бабаходжаева, Н. М. (2020). Преподавание предмета Теория алгоритмов посредством программно методического комплекса. *Modern education systems in the USA the EU and the Post-Soviet countries*, 1(1), 194-196.
12. Бабаходжаева, Н. М. (2020). Творческие задачи с использованием информационных технологий по предмету теория алгоритмов. *Increasing the innovative activity of the youth raising their morale and achievements in science*, 2(6), 216-220.
13. Нормуродов, Ч. Б., Бабаходжаева, Н. М. (2020). Алгоритмлар назарияси фани ва уни ахборот технологиялари воситасида ўқитиш. *Инновацион ривожланиш нашриёт – матбаа уйи*, 1(1), 163.
14. Narmuradov, C. B., & Babakhodjaeva, N. M. (2020). Teaching the subject of «Algorithm theory» by means of the software and methodological complex. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(3), 505-510.
15. Babakhodjayeva, N. M. (2020). Program-methodological complex as a means of improving the quality of learning in higher educational institutions. *Theoretical & Applied Science*, (7), 166-171.
16. Бабаходжаева, Н. М. (2019). Аниқ фанларни ўқитишда ахборот технологиялари воситаларини қўллашнинг хусусиятлари. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, (4).
17. Бабаходжаева, Н. М. (2010). Интерактивный учебно-методический комплекс в поддержку предмета Теория алгоритмов. *Узбекский журнал Проблемы информатика и энергетики*, 1(10), 81-87.
18. Zaripova, M., Babakhodjaeva, N. (2019). Using the electronic educational-methodical complex in development quality of teaching the subject Theory of algorithm. *International Journal of Academic Research*, 1(2), 34-36.
19. Артиқов, А. А. (2022). Футбол спорт турида дарвозага зарба бериш аниқлигини баҳолаш услубияти. *Fan-Sportga*, (1), 48-51.
20. Artikov, A. (2020). About some methodological problems in teaching special sciences. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(7), 379-384.
21. Артиқов, А. (2020). Осиё кубоги-2019 ўйинларидаги ўзбекистон терма жамоасининг дарвозага йўлланган зарбалар аниқлиги бўйича таҳлил. *Фан-Спортга*, (7), 16-17.
22. Артиқов, А. (2020). Футболчиларнинг техник усуллари аниқлигини такомиллаштиришга йўналтирилган махсус машқлардан фойдаланиш самарадорлигининг таҳлили. *Фан-Спортга*, (3), 16-18.
23. Артиқов, А. А. (2020). Тўп узатишлар ва дарвозага зарбалар аниқлигининг таҳлили. *Fan-Sportga*, (4), 35-37.

24. Артиқов, А. (2019). Офк кубоги ўйинларида ўзбекистон терма жамоаси футболчиларининг техник усуллари аниқлигини таҳлил қилиш натижалари. *Фан-Спортга*, (3), 42-45.
25. Сулейманова, С. А. (2021). Дервишество русской и русскоязычной литературе. *Academic research in educational sciences*, 2(8), 444-448.
26. Suleymanova, S. A. (2022). Dervish in Russian and Russian Language Literature. *International Journal Of Multidisciplinary Research In Science, Engineering and Technology*, 5(2), 365-366.
27. Сулейманова, С. А., & Шеркулова, Ш. (2022). К вопросу о концепте учителя в классической. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(1), 433-437.
28. Сулейманова, С. (2022). Формирование личности учителя и отношение общества к учителю. *Экономика и социум*, 1045-1050.
29. Сулейманова, С. А. (2021). Дефиниция концепта в современном литературоведении. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 351-355.
30. Eshmuminov, A. (2019). Problems of creating national corpus of the uzbek language. level of synonyms. *Theoretical & Applied Science*, (5), 47-50.